




NAMANGAN VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI



**NAMANGAN VILOYATIDA  
MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI  
FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK  
KO'RSATKICHLARI**  
*2021- yil yakuniga*

# NAMANGAN VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI


Mamlakatimizda madaniyat va san'at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Qolaversa, taraqqiyotning chinakam samarasi boylik yoki kuch-qudrat darajasi bilan emas, milliy madaniyatning naqadar yuksaklikka ko'tarilgani bilan o'lchanishi xususida tarixiy misollar ko'p. Masalan, ingliz san'atshunos olimi F. R. Martin "Temuriylar singari san'ati va madaniyatini qadrlaydigan hukmdorlar Markaziy Osiyoda hech vaqt bo'lmagan", deb yozadi. Shu ma'noda, davlatimiz rahbarining milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir tashabbusi tafakkur tarzimiz, hayotga munosabatimiz, millat va xalqning buguni, ertasini, navqiron avlod ma'naviy kamolotini, odamlarimizning nurli kelajagini yaratishga qaratilgan ishlarimizning tub ildizlarini ham o'z ichiga qamrab oladi, desak, yanglishmagan bo'lamiz.

Konsepsiya besh bobdan iborat. Unda kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan bir qator ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Jumladan, madaniyat sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, tizimdagi muassasalar huquqiy maqomini belgilash, ijodkorlarni ijtimoiy himoyalashning huquqiy bazasini, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yaratish, madaniyat hamda san'at muassasalari moddiy-texnika imkoniyatlarini kengaytirish ko'zda tutilgan. Shuningdek, sohaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini to'liq tatbiq etish, xalqaro festival va ko'rik-tanlovlarda chinakam iste'dod egalari ishtirokini ta'minlash, xorijiy tashkilotlar bilan ijodiy hamkorlikni yo'lga qo'yish kabi qator chora-tadbirlar belgilangan.

Madaniy faoliyatda san'at sohasining ko'plab yo'nalishlarini to'liq qamrash, ularning faoliyatini to'g'ri baholash maqsadida soha mutaxassislarining maslahat organi bo'lgan tarmoq badiiy kengashlarini tuzishga muhtojlik mavjud. Endilikda tasarrufida madaniyat tashkilotlari bo'lgan davlat organlari va tashkilotlar, shuningdek, madaniyat tashkilotlari tomonidan teatr, musiqa va konsert faoliyati, sirk san'ati va tasviriy san'at, arxitektura va dizayn bo'yicha tarmoq badiiy kengashlarini tashkil etish huquqi qonun bilan mustahkamlandi.



**Teatrlar soni, birlikda**



**Hududlar bo'yicha  
faoliyat yuritayotgan teatrlar soni  
(2021-yil, birlik)**

2021- yil Viloyatda teatrlar soni 1 tani drama teatr 257 ta spektakil (tomoshalari) qo'yilgan bo'lib shundan 257 tasi drama teatrlarning janri bo'yicha tomoshabinlar soni drama teatrdan 73,2 ming kishi tashrivbuyirgan.



# NAMANGAN VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

## Spektakllar (tomoshalar) soni, birlikda




## 2021-yil hududlar bo'yicha spektakllar tarmog'i va faoliyati soni, birlikda




2021-yil Viloyatida namoyish etilgan spektakllar soni **257** tani tashkil etadi

### Teatrga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni, ming kishi



### 2021-yil hududlar kesimida tomoshabinlar soni, birlikda







**Namang viloyatida faoliyat  
yuritayotgan teatrlarning janrlar  
bo'yicha taqsimlanishi, birlik**

	Teatrlar soni	shundan:					
		opera va balet	drama	musiqali	yosh tomoshabinlar	qo'g'irchoq	Bolalar uchun qo'g'irchoq
<b>Namangan viloyati</b>	<b>1</b>	<b>0</b>	<b>1</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>0</b>
Namangan sh.	1	0	1	0	0	0	0
Minbuloq	0	0	0	0	0	0	0
Kosonsoy	0	0	0	0	0	0	0
Kosonsoy	0	0	0	0	0	0	0
Namangan	0	0	0	0	0	0	0
Norin	0	0	0	0	0	0	0
Pop	0	0	0	0	0	0	0
To'raqo'rg'on	0	0	0	0	0	0	0
Uychi	0	0	0	0	0	0	0
Uchqo'rg'on	0	0	0	0	0	0	0
Choptoq	0	0	0	0	0	0	0
Chust	0	0	0	0	0	0	0
Yangiqo'rg'on	0	0	0	0	0	0	0

Namanagn viloyatidagi teatrlarda  
faoliyat yuritayotgan xodimlar soni,  
kishi



Hududlar kesimida teatrlarda faoliyat yuritayotgan  
xodimlar soni, (2021-yil kishi)




Faoliyat olib boriladigan  
tillar bo'yicha teatrlar soni,  
(2021- yil, %.)



■ O'zbek

■ Rus


Hududlar kesimida teatrlarda bepul  
namoyish etilgan spektakllar soni,  
(2021-yil, birlik)






# NAMANGAN VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

## Muzeylar soni




## 2021-yil hududlar kesimida muzeylar soni, birlikda



2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, Namangan shahrida muzeylar soni 2 tani tashkil etib, shundan 1 tasi muzey filallari.


## 2021- yil viloyat bo'yicha muzeylarning ilmiy-ma'rifiy ko'rgazma ishlari

### Hududlar kesimida muzeylarga yakka tartibda tashriflar soni, ming kishi



Muzeylarga yakka tartibdagi tashriflar soni bo'yicha ko'rsatkich – **13,8** ming kishi, tashkil etdi.


Muzeylardagi eksponatlar soni, ming birlik



2021- yilda hududlar bo'yicha muzeylar fondlari.



2021- yilda eksponatlarning turi bo'yicha muzeylar  
fondi



Muzeylardagi eksponatlar soni **98,2** ming donani tashkil etib, shundan **8,5** foizi arxeologik ashyolar, **8,7** foizi numizmatika, **41,2** foizi hujjatlar, **25,9** foizi foto sur'atlar, **1,1** foizi amaliy san'at, maishiy va etnografiya **4,2** foizi, grafikalar. - **1,3%**, haykaltaroshlik - **0,04%** va boshqalar - **9,2%**.



## **Statistik ko'rsatkichlarga izoh**

**Madaniyat**- inson faoliyati va shu faolliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat [musiq](#), [adabiyot](#), [badiiy tasvir](#), [me'morchilik](#), [teatr](#), [kinematografiya](#), turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin.

**Madaniy meros** - bu xalqning yoki jamoaning moddiy va nomoddiy merosidir, uni saqlab qolish va keyingi avlodlarga etkazish uchun vasiyat qilingan. Bunga e'tiqodlar, bilimlar, badiiy ifodalar, me'yorlar va qadriyatlar, ijtimoiy amaliyotlar, urf-odatlar va urf-odatlar, joylar, ob'ektlar va madaniyatning har qanday boshqa ifodalari kiradi.

**Madaniy meros obyektlari** — moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlari.

**Moddiy madaniy meros obyektlari** — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan ansambllar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar.

**nomoddiy madaniy meros obyektlari** — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so'z, raqs, musiqa, tomosha san'ati), shuningdek ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati bilan bog'liq bilimlar, ko'nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar”.

**Ansambllar** — tarixan tarkib topgan hududda aniq ko'zga tashlanadigan, atrof manzarasi bilan umumiyliigi yoki aloqadorligi tarixiy, arxeologik, me'moriy, estetik yoki ijtimoiy-madaniy qimmatga ega bo'lgan, ijtimoiy, ma'muriy, diniy, ilmiy, o'quv-ta'lim, istehkom, saroy, turarjoy, savdo, ishlab chiqarish va boshqa ahamiyatga molik hamda rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san'ati, me'morchilik asarlari bilan bog'liqlikda alohida yoki o'zaro birgalikda turgan yodgorliklar, imoratlar va inshootlar guruhlari, shuningdek tarixiy tarhlarning hamda manzilgohlar imoratlarining qoldiqlari, landshaft arxitekturasi va bog'-rog' san'ati asarlari (bog'lar, istirohat bog'lari, xiyobonlar, sayilgohlar).

**Diqqatga sazovor joylar** — inson va tabiat ijodining mushtarak mahsuli, shuningdek tarixiy, arxeologik, shaharsozlik, estetik, etnologik yoki antropologik qimmatga ega bo'lgan hududlar, shu jumladan xalq hunarmandchiligi maskanlari, tarixiy manzilgohlar yoki shaharsozlik tarhi markazlari va tarixiy (shu jumladan harbiy) voqealar, yodgorliklar, atoqli tarixiy shaxslarning hayoti bilan bog'liq bo'lgan imoratlar, xotira joylari, tabiiy landshaftlar, shuningdek ko'hna shaharlar, shahristonlar, manzilgohlar, qarorgohlar imoratlarining madaniy qatlamlari, qoldiqlari, marosimlar bajo etiladigan joylar.





## Mundarija

Umumiy ma'lumot	1
<b>Teatrlar soni</b>	2
Spektakllar soni	3
Teatrga kelgan tomoshabinlar soni	4
Janrlar bo'yicha teatrlar tarmog'i	5
2021-yil hududlar va faoliyat olib boriladigan tillar bo'yicha teatrlar soni	6
<b>Muzeylar soni</b>	7
2021-yil hududlar bo'yicha muzeylarning ilmiy-ma'rifiy ko'rgazma ishlari	8
Muzey fondlari	9
2021- yil eksponatlarning turi bo'yicha muzeylar fondi	10
Statistik ko'rsatkichlarga izoh	11



Press-relizni tayyorlash uchun mas'ul:  
Namangan viloyati statistika boshqarmasi  
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi



Namangan viloyati  
statistika boshqarmasi



Manzil:, Namnagan sh., N.  
Nomongoniy ko'chasi, 14-uy



Tel: +99869 227-84-94



e-mail: [info@namstat.uz](mailto:info@namstat.uz)



[www.namstat.uz](http://www.namstat.uz)



[facebook.com/namstat.uz](https://facebook.com/namstat.uz)